Raxmatullayeva Kamola Amirkulovna
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
Amaliyot va kasbiy rivojlantirish bo'limi uslubchisi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON VA FUQAROLARNING BELGILANGAN HUQUQLARI HAMDA BURCHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati, tarixiy tashkil topishi hamda inson va fuqarolarning shaxsiy, siyoiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari bilan bir qatorda konstitutsiyaviy burchari yoritilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, siyosiy huquqlar, shaxsiy huquqlar, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar, aybsizlik prezumpsiyasi, vijdon erkinlik.

Konstitutsiyaning yaratilish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo "Konstitutsiya" so'ziga ta'rif berish lozimdir. "Konstitutsiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "constitution" tuzilish, tuzuk, degan ma'nolarni anglatadi.

Konstitutsiya davlatning oliy va bosh qomusi hisoblanib, davlatning ma'muriy tuzilishi, davlat organlari, saylov va sud tizimini belgilab, davlat, jamiyat, shaxsning o'zaro munosabatlarini, inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlab beruvchi huquqiy hujjatidir.

Qadimdan Temur tuzuklari Osiyo va Sharq mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat hisoblangan.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog'da sharafli solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Negaki, mamlakatdagi barcha qonun hujjatlari Konstitutsiya asosida tuziladi. Shu o'rinda Konstitutsiya nima asosida tuziladi degan savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya o'z muqaddimasida keltirilgandek, hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olib, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishiga intilib, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash maqsadida, inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga, o'zbek davlatchgiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, ushbu qonuniy hujjat yaratiladi.

Konstitutsiyaning yaratilish tarixiga nazartashlar ekanmiz, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, asosiy Qonunimiz Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilganligi eng e'tiborli jihati deyish mumkin.


Konstitutsiyani yaratishdagi ilk qadam – bu mustaqillik uchun kurashning uzviy tarkibiy qismidir.

Yurtimiz hayotidagi o'ta muhim voqealar 1990-yil bilan bog'liq desak to'g'ri bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning 8-bandida O'zbekiston "o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etadi" degan qoida mustahkamlangan.

Deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning "yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos" bo'lishi qayd etilgan. O'shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo'lib O'zbekistonda qabul qilingan edi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi yana bir qadam to'rtinchi –Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishiga borib taqaladi.

Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil 21-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.



Fanlar akademiyasin atshunoslik va boshqaruv instituti, Prezident devoninin sepsiya yaratilib, uchinchi konsepsiya asos sifatida olin hamiyatli, muhim g‘oyalar bilan boyitilib, yagona konsepsiya shakllantirildi va u asosida loyiha tayorlashga kirishildi.

Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrda tayyorlab bo‘lindi. Ushbu lohiya muqaddima, 6 bo‘lim va 158 moddadan iborat edi. 1992-yil bahorida esa 149-moddadan iborat ikkinchi variant tayyorlandi. Konstitutsiya loyihasi muhokamasi bir necha bosqichda bo‘lib o‘tdi.

Birinchi bosqich bu loyiha tayyorlovchi komissiya majlisida, ishchi guruhlarda bo‘lgan muhokamasi.

Ikkinchi bosqichda umumxalq muhokamasi bo’lib o’tdi.

Uchinchi bosqich Oliy Kengash komissiyalari va sessiyasida deputatlar muhokamasi.

Konstitutsiyaning umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif, tavsiya va mulohazalar bildirildi. Takliflar asosida loyiha matnining deyarli yarmiga o‘zgartirish kiritildi. 127 moddadan deyarli 60 tasiga tuzatish kiritilgan bo’lsa, 4 ta modda umuman chiqarib tashlandi.

Loyiha har tomonlama o‘ylab, takomillashtirilgandan so‘ng, Konstitutsiyaviy komissiya 1992-yil 7-dekabrda bo‘lib o‘tgan majlisida, uni ko‘rib chiqishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash sessiyasiga kiritish haqida qaror qabul qildi. Komissiyaning ushbu oxirgi majlisida ham Rais taklifi bilan loyihaning ko‘plab normalari takomillashtirildi.

1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII-chaqiriq, XI-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu sessiya tarixiy sessiya bo‘lib, tarixiy ahamiyatga ega masalani muhokama qildi. Sessiyada Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya raisi I.Karimov ma'ruza qildi. Ma'ruzada Konstitutsiya loyihasi batafsil bayon qilib berildi. Shundan so‘ng, Konstitutsiya loyihasi deputatlar muhokamasidan o‘tdi. Sessiyada loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha, aniqliklar kiritildi. Ayrim takliflar asosli tarzda rad etildi.

Loyihaning har bir moddasi, bobi, bo‘limlari alohida-alohida muhokama qilinib, tegishli asosli takliflar inobatga olinib, o‘zgartirishlar kiritilgandan so‘ng, qabul qilinish uchun ovozga qo‘yildi. Deputatlar yakdillik bilan Muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob va 128 modaddan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Konstitutsiyaning tuzilishi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi ham Muqaddima, olti

bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Muqaddimada jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy bosqichlari hamda rivojlanish istiqbollari, asosiy qonunning qabul qilinish tarixi ko’rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko’ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning bevosita majburiyatiga kiradi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari uch guruhgabo’linadi, ya’ni shaxsiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardir.

Konstitutsiyada birinchi o’rinda shaxsiy huquqlar keltirilgan bo’lib bu tabiiy huquqlar deb ham ataladi.Bu huquqning boshqa huquqlardan farqi shundaki, inson tug’ilganidan vujudga keladi va vafot etguniga qadar davom etadiva barcha mamlakatlarda mavjud huquq hisoblanadi. Yana bir farqi shundaki, shaxsiy huquqlarni cheklash mumkin emas.

Shaxsiy huquqlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- Yashash huquqi
- Shaxsiy daxlsizlik huquqi
- Aybsiz hisoblanish huquqi
- Turar joy daxlsizligi huquqi
- Erkin ko’chib yurish huquqi
- Axborot olish va axborot tarqatish huquqi

Shaxsiy erkinliklarga esa quyidagilar:

- So’z erkinligi
- Fikrlash erkinligi
- Vijdon erkinligi
- E’tiqod erkinligi

Siyosiy huquqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki fuqarolar bu huquqlari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etish huquqini amalga oshiradi.Siyosiy huquqlarga esa faqat davlat fuqarosigina ega bo’ladi.

Shaxsiy huquqlardan farqli o’laroq siyosiy huquqlarga ma’lum bir yoshga yetganda ega bo’lish mumkin. Siyosiy huquqlarga misol qilib, fuqarolar davlat ishlarini boshqarish bevosita yoki bilvosita ishtiroki, o’z ijtimoiy faolliklarini namoyish va mitinglar orqali amalga oshira olishi,kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa uyushmalarga birlashsish huquqigaegaligi hamda har bir shaxs ariza,taklif va shikoyat bildirish huquqiga egaligini keltirsak bo’ladi.

Fuqarolar, normal hayot kechirishi, tabiiy va ma'naviy boyliklardan foydalanishi, bilim olishi, mehnat qilishi, sog‘ligini saqlash uchun tegishli imkoniyatlar bo‘lishi shart. Bu imkoniyatlar davlat tomonidan yaratiladi va ulardan foydalanish uchun qonun doirasida huquqlar o‘rnatiladi. Bularning barchasi Konstitutsiyada ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar sirasiga kiradi. Bularga misol qilib, mulk huquqi, ijtimoiy ta’minot huquqi, mehnat qilish va dam olish huquqi, malakali tibbiy ko’rikdan o’tish huquqi hamda ilmiy-texnik ijod huquqini keltirish mumkin.

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nafaqat huquq va erkinliklar balki asosiy burchlarni ham belgilab qo’ygan. Bunga esa misol qilib Konstitutsiyaning 48-moddasini “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”shuningdek,madaniy va tarixiyobidalarni asrab-avaylsh, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishni, qonun bilan belgilangan soliqlarni o’z vaqtida to’lashga, vatanni himoya qilishga majburdirlar.

Konstitutsiya mamlakatimiz mustaqilligining barqarorligini,har bir inson tengligini, mustaqilligini ta’minlovchi, qolaversa oilaviy munasabatlarni himoyalovchi muhim qonuniy hujjatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Toshkent-2021

2.O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent 2019.B.T.Musayev, K.R. Aliyeva, B.Narimanov.

WORDLY KNOWLEDGE